

**BOSHLANG`ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA  
O`QUVCHILARNING BILISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH VA  
O`STIRISH.**

*Xojimatova Mashhura Mamatusupovna*

*Andijon viloyati Izboskan tumani*

*21-umumiy o`rta ta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o`quvchilarning bilishga bo`lgan qiziqishlarini o`stirish, bilish faoliyatini rivojlantirish yo`llari va usullari geometrik masalalarga boglangan holda yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** bilishga bo`lgan qiziqish, o`quv faoliyati motivi, bilish faoliyatini rivojlantirish yo`llari

Hozirgi kunda boshlang`ich ta`limda o`quvchilarni bilishga bo`lgan qiziqishlarini o`stirish, yangi bilimlar olishga undash, yo`naltirish, qiziqtirish dolzar masaladir. O`quvchilarni bilish faoliyatni rivojlantirishga oid turli pedagogik yondoshuvlar, usullar zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Boshlang`ich sinf matematika dasturi o`quvchilardan ta`lim jarayoninig samarali metodlaridan optimal ravishda foydalanish, bayon qilinayotgan har bir nazariy va amaliy dastur materiallarini gnesologik nuqtai nazardan asoslab tushintirish va ana shu tushintirish jarayonida o`quvchilarda bayon qilinayotgan mavzu materiallarini bilishga bo`lgan qiziqishlarini yanada mukammalroq shakllantirishlarini taqozo etadi. Ma`lumki, bilish nazariyasi “jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amqliyotga” degan g`oyani ilgari suradi. Har bir fan ob`ektiv borliqni o`z predmeti nuqtai nazaridan o`rganadi. Shu jumladan matematika fani ham ob`ektiv borliqdagi narsalarning fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni o`rganish jarayonida o`rganuvchi sub`ekt bilan o`rganiluvchi ob`ekt orasida shunday bir vaziyat hosil bo`ladi. [1, 270] Geometriya buyumlarning boshqa hamma xossalarini e`tiborga olmay, faqat ularning fazoviy

hossalarini o'rganadi. Masalan diametri 25 sm bo'lgan rezina koptok bilan cho'yandan quyilgan huddi shunday diametrli yadro bir-biridan og'irligi, rangi, o'zining qattiqligi kabi belgilari bilan farq qiladi. Biroq geometriyada o'sha koptok bilan yadroning bu hossalari e'tiborga olinmaydi; ularning fazoviy hossalari, ya'ni shakli va kattaligiga ko'ra bu ikki jismning har biri diametri 25 sm bo'lgan sharni tasvirlaydi. Abstraktlashtirishni davom ettirib, geometrik sirt, geometrik chiziq, geometrik nuqta kabi tushinchalarini hosil qilamiz. Tabiatda o'lchamlari bo'lmagan nuqta yo'q, lekin o'lchamlari shu qadar kichik buyumlar borki, ularni ba'zi hollarda geometrik nuqta sifatida qabul qilish mumkin. Shu bilan birga geometrik chiziqlar va geometrik sirtlar ham mustaqil holda mavjud emas, ammo ularni geometriyada aniqlangan barcha xossalari fan va texnikada keng miqyosda keng tatbiq etiladi.

Hozirgi kunda matematika ta'limi sohasi bo'yicha davlat ta'lim standarti boshlabg'ich ta'limning har bir sinfi yakunida o'quvchilarning matematik tayyorgarligiga qo'yiladigan minimal talablar takibida geometrik bilimlar ham muhim o'rin tutadi. 3-sinf matematika darsligiga kiritilgan parallel va perpendikulyar to'g'ri chichiqlar, o'qqa nisbatan simmetrik figuralar, burchak simmetriyasi, fazoviy figura – konus va fazoviy figura – piramida shular jumlasidandir. [3, 188 bet] O'quvchilarga quyidagi nazorat savollari berib, murojaat mumkin :

- a) quyidagi shakllarning nomlarini ayting
- b) ular haqida nimalarni bilasiz

O'quvchilarning geometriyaga oid bilimlarini mustahkamlash maqsadida yana o'tilgan mavzularga doir quyidagi jadvalda berilgan topshiriqlarni bajarishlarini kichik guruhlarda taklif qilish mumkin: 1. O'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi:

- a) rasmda qanday geometrik figuralar tasvirlangan?
- b) Kundalik hayotimizda tashqi ko'rinishi huddi shu shaklga o'hshash bo'lgan predmet va buyumlarga misollar keltiring.

Barchamizga ma'lumki, Mirzo Ulug'bek mashhur o'zbek astronomi hisoblanadi. Agar Ulug'bek matematika va geometriya fanlarini yaxshi bilmaganida yulduzlarning harakati va o'rmini, Yerning Quyosh atrofida aylanishini, Quyosh va Oyning tutilish

hodisasini aytib bera olarmidi? Geometrik shakllarning kundalik hayotimizdagi o'rnini va ahamiyati haqidagi bilimlarni shu tarzda mustahkamlab borish mumkin.

Bilish faolligini oshirish natijasida o'quvchilarda: Geometrik figuralar modeli Toifaga ajratib beruvchi belgilari Nomi Tashkil etuvchi elementlari uchburchak 3 ta tomoni va 3 ta uchi bor To'g'ri to'rtburchak 4 ta tomoni va 4 ta uchi bor Parallelepiped 2 ta asosi va 4 ta yon yoqlari to'g'ri to'rtburchakdan iborat, 12 ta qirrasini va 8 ta uchi bor Kub 2 ta asosi va 4 ta yon yoqlari kvadratdan iborat, 12 ta qirrasini va 8 ta uchi bor

1. O'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi:

a) rasmda qanday geometrik figuralar tasvirlangan?

b) Kundalik hayotimizda tashqi ko'rinishi huddi shu shaklga o'xshash bo'lgan predmet va buyumlarga misollar keltiring.

Barchamizga ma'lumki, Mirzo Ulug'bek mashhur o'zbek astronomi hisoblanadi. Agar Ulug'bek matematika va geometriya fanlarini yaxshi bilmaganida yulduzlarning harakati va o'rnini, Yerning Quyosh atrofida aylanishini, Quyosh va Oyning tutilish hodisasini aytib bera olarmidi? Geometrik shakllarning kundalik hayotimizdagi o'rnini va ahamiyati haqidagi bilimlarni shu tarzda mustahkamlab borish mumkin. Bilish faolligini oshirish natijasida o'quvchilarda:

1. O'quv topshiriqlarni bajarishga tayyor turish kabi bir nechta ijobiy fazilatlarni shakllanishiga zamin yaratadi

2. Mustaqil fikrlash qobiliyatini o'sishi

3. O'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish Matematika fanini o'qitishda o'quvchilarni bilish faolligini oshirish orqali kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilish imkoniyatini hosil qilish mumkin.

Turli ko'rinishdagi malakalarni matematik tushunchalar, xossalalar, shakllar, usullar va algoritmlar orqali berib borish lozimdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.)Toshkent.“Fan va texnologiya” 2005 yil
2. Xalillayev A., Xudoynazarov E. Boshlang'ich sinflarda masala yechishga o'rgatish metodikasi.(metodik qo'llanma), Urganch, 2010
3. S.Burhonov,O'.Hudoyorov va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3- sinfi uchun darslik «SHARQ» Toshkent – 2019, 206 bet
4. N.Abdurahmonova, L.O'rinboyeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining. 2-sinfi uchun darslik «Yangi yo'l Poligraf Serviz» Toshkent – 2018
5. N.U.Bikbayeva,E.Yangabayeva,K.M.Girfanova.To'rtinchi sinf matematika . darsligi. Toshkent. “O'qituvchi”2017
6. Jumayev M.E, Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasidan. praktikum. (O O'Y uchun o'quv qo'llanma )Toshkent.“O'qituvchi” 2004 yil.
- 7.M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1- sinfi uchun darslik «Turon-iqbol» Toshkent – 2018